

TILAKBERDI PRIMOV

**TA'LIM FALSAFASI  
YOKI  
TA'LIM-TARBIYANING  
METODOLOGIK  
MASALALARI**



TOSHKENT

**T. PRIMOV**

**TA'LIM FALSAFASI  
YOKI TA'LIM-TARBIYANING  
METODOLOGIK MASALALARI**

**TOSHKENT – 2014**

**UO‘K: 371.3**  
**KBK 32.811**  
**P-22**

**P-22**      **T. Primov. Ta’lim falsafasi yoki ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 272 bet.**

**ISBN 978–9943–4350–4–9**

Ushbu monografiyada ta’lim falsafasi tushunchasining mazmun-mohiyati, ta’lim falsafasining pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi sifatidagi ahamiyati va roli, Prezidentimiz Islom Karimovning ta’lim falsafasi rivojiga qo‘shayotgan ulkan hissasi, u yaratgan ta’lim-tarbiya yangi tizimning mohiyati, Yurtboshimiz falsafiy jihatdan asoslab bergan O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotining pedagogik muammolari va ularni hal etish yo‘llari haqidagi g‘oyalari hamda yosh avlodni aqliy, ma’naviy, axloqiy, huquqiy, mafkuraviy, iqtisodiy, jismoniy tarbiyalashga oid yangicha metodologik yondashuvlari yoritilgan.

Hozirgi globallashuv jarayonlari va modernizatsiyalashgan jamiyatda ta’lim-tarbiyaning o‘rni, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlarning ta’lim-tarbiyada aks etishi masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Monografiya ta’lim-tarbiya sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, talabalar, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrir:**

**A. Choriyev** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**N. Shermuhamedova** – falsafa fanlari doktori, professor;  
**N. Egamberdiyeva** – pedagogika fanlari doktori, professor;  
**A. Erkayev** – falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

**ISBN 978–9943–4350–4–9**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2014.

*Ta'lim berishning, ma'naviy, axloqiy va kasb malakasi bo'yicha tarbiyalashning mutlaqo yangi tizimi ishlab chiqilishi zarur. Sifat jihatidan butunlay yangi o'quv dasturlari yaratilishi darkor.*

**Islom Karimov**

## **SO'Z BOSHI**

Mustaqil O'zbekiston barcha jabhalarda ulkan zafarlar quchib, taraqqiy etgan davlatlar safidan munosib o'rin olishga intilmoqda. Istiqlol yillari O'zbekiston uchun, ayniqsa, pedagogik tafakkurni dunyo miqyoslarga chiqishga intilish, o'z mezonlarini yangilash yillari bo'ldi. Yangilangan ta'lim tizimi va undagi kashfiyotlar, yutuqlar, XXI asrga mo'ljallangan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat maqsadlarimiz – konsepsiyalarimiz jahon hamjamiyati tizimidan munosib o'rin topdi.

Ma'lumki, istiqlolga erishgan davlatimiz Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida demokratik taraqqiyot yo'lini tanladi. Taraqqiyotning bu modernistik – milliy zamonaviylashuv yo'li xalqimizni iqtisodiy-siyosiy, milliy-madaniy va pedagogik turg'unlikdan olib chiqadigan, jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashiga imkon beradigan, millatimizga millat unvonini beradigan yo'l edi.

Mustaqil O'zbekiston Yurtboshimiz rahbarligida jahonda, «O'zbek modeli» deb nom olgan harakat dasturi asosida jamiyatni isloh qilishga kirishdi. Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berilgan jamiyatni isloh etishning besh tamoyili O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini tashkil etadi.

Islom Karimov mustaqil O'zbekiston davlatini barpo etdi. Davlatimizni «Yangi uy qurmay turib, eski uyni buzmay» degan tamoyil asosida tadrijiy yo'lda milliy taraqqiy etishini ta'minlamoqda. Istiqlolning dastlabki yillarida mamlakatimizda tub yangilanishlar nazariyasini va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ta'lim, harbiy va boshqa sohalarda islohotlar o'tkazish konsepsiyalarini ishlab chiqdi va amalga oshirmoqda. Bu esa O'zbekistonni yangi sivilizatsiya sari boshladi. Bu yangilanishlar va islohotlar jarayonida Davlatimiz rahbarining noyob qobiliyati, jonkuyarligi hamda jasorati namoyon bo'lmoqda.

Og'ir xalqaro muhitda bunyod qilinayotgan taraqqiyotning «O'zbek modeli»ni, ayniqsa, O'zbekistonning ta'lim sohasidagi ilg'or

islohotlar natijasida erishayotgan ulkan yutuqlarini butun dunyo e'tirof etmoqda. Bu «O'zbek modeli»ni xorijiy olimlar Islom Karimov kashfiyoti, uning «nau-xau»si deb atadilar.

Prezidentimiz Islom Karimov o'z asarlari, pedagogik ta'limoti va undagi g'oyalar, kashfiyotlar bilan ta'lim falsafasini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Uning ta'limga oid fikrlaridagi falsafa, mantiq bizni ta'limning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotidagi hamda inson tafakkurini o'zgartirishdagi o'rni haqida teran mushohada yuritishga undaydi. Davlatimiz rahbarining falsafiy tafakkuri, pedagogik ta'limoti mahsuli bo'lgan yangilangan ta'lim tizimi O'zbekistonni demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchi va odamlar tafakkurini o'zgartiruvchi qudratli omil bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida yangilangan ta'lim tizimi to'la ma'nodagi yangicha tafakkur demakdir. Yangilangan ta'lim va undagi yangi kashfiyotlar, konsepsiyalar, qonuniyatlar, qadriyatlar ta'lim falsafasi taraqqiyotida yangi bosqichdir.

Islom Karimov ta'lim tizimining nazariyasi va amaliyotiga fundamental hissa qo'shgan buyuk donishmand olim. Uning asarlari, pedagogik ta'limoti, undagi teran falsafiy g'oyalar xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod tafakkuri, dunyoqarashi, xarakterini o'zgartirishning eng muhim omili bo'lmoqda. Uning rahnamoligida jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk barkamol avlodni shakllantirishning mukammal, yangi tizimi yaratildi. Bunday pedagogik tizim dunyodagi hech bir davlatda uchramaydi.

Yurtboshimiz shaxs va jamiyat milliy ma'naviyatini shakllantirishning buyuk nazariyotchisi va murabbiysi sifatida mashhur bo'ldi.

Mamlakatimizga tashrifi chog'ida Koreya Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, ta'lim va inson resurslarini rivojlantirish vaziri Kim Shin Il O'zbekistonning zamonaviy ta'lim tizimi, uzluksiz ta'lim muassasalarini ko'rib: «Bunday zalvorli odim tashlash uchun inson naqadar yuksak darajadagi intellektual salohiyatga, dadillik va mardlik xislatlariga ega bo'lishi lozim» deya hayrat bilan e'tirof etgan edi. Bu dunyodagi eng yaxshi ta'lim tizimlaridan biri amal qilayotgan mamlakat vakilining bahosi edi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi islohotlar muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbek modeli O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlamoqda.

Islohotlarning muhim bo'g'ini va asosiy sharti bo'lgan ta'lim-tarbiya sohasini tubdan yangilash, uni modernizatsiyalash va u orqali odamlar ongi, tafakkurini, dunyoqarashini o'zgartirish, ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimini milliy asosda qayta qurishning metodologik asosi bo'lish bilan birga jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan yangilashning ham asosiy omili bo'ldi.

Prezidentimiz Islom Karimov o'z asarlari va nutqlarida O'zbekiston taraqqiyotining pedagogik muammolari va ularni hal etishning yo'llarini ko'rsatib berdi. Uning pedagogik ta'limoti, ta'lim-tarbiya haqidagi falsafiy g'oyalari, qoida, ko'rsatmalari, yosh avlodni aqliy, axloqiy-ma'naviy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy va jismoniy tarbiyalashga oid yangicha metodologik yonlashuvlari pedagogik tafakkurni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi hamda mamlakatimiz istiqbolini ta'minlayotgan asosiy omillardan biri bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yangilanishlar jarayoni Prezidentimizning siyosiy tafakkuri mahsuli bo'lganidek, ta'lim tizimidagi yangilanishlar, kashfiyotlar uning pedagogik tafakkuri mahsulidir.

Islom Karimov asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid teran fikrlar, falsafiy mushohadalar yangi mukammal pedagogik tizimni tashkil etadi. Unda milliy tarbiyani rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va asosiy tamoyillari belgilab berildi.

Bu pedagogik ta'limotda hozirgi globallashuv va bozor munosabatlari sharoitida ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalariga yangicha yondashuvlar o'z ifodasini topdi. Ta'lim-tarbiyaning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlovchi eng kuchli, asosiy omil ekanligi va o'ziga xos qonuniyatlari, yangi qadriyatlari kashf qilindi. Islohotlar natijasida yangilangan ta'lim-tarbiya tizimi orqali hayotimizda tez orada ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni Davlatimiz rahbari o'zi yaratgan yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishish mumkinligi atroflicha bayon qilindi hamda bu jarayon bugunning o'zida o'z hosilini berayotganligi hayotiy misollar va faktlar asosida tahlil qilib berildi.

Uning falsafiy g'oyalari pedagogik ta'limoti asosida ta'limning yangi kontseptsiyalari, modellari yaratildi va amaliyotga joriy etildi.

Yosh avlodni aqliy, axloqiy-ma'naviy, mafkuraviy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiyalashning mazmuni, shakl, metodlari qayta qurildi, milliylashtirildi va zamonaviylashtirildi. Uning pedagogik g'oyalari bizga tarbiyaning va u haqdagi fan bo'lgan pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyotdagi, ma'naviyatni yuksaltirishdagi o'rni va rolini teran anglash imkoniyatini berdi. Bu g'oyalar ta'lim falsafasi va ta'lim sotsiologiyasi masalalari rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Bugungi kunda yangilangan ta'lim-tarbiya tizimi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan mamlakat taraqqiyotining bosh g'oyalarini yosh avlod ongiga singdirib, ularni komillik sari yetaklamoqda.

Islom Karimov o'tmishdagi ajdodlarimiz, mashhur mutafakkirlarning komil inson haqidagi g'oyalari, orzularini amalda ro'yobga chiqargan buyuk donishmanddir. Uning falsafiy teran g'oyalari va amalga oshirayotgan ulug'vor ishlari tufayli komillikka intilish xalqimiz uchun ulug' qadriyat darajasiga ko'tarildi.

Prezidentimizning ta'lim-tarbiya haqidagi falsafiy g'oyalari, pedagogik ta'limoti milliy-madaniy merosga, an'analarimizga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgarishiga olib keldi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini yangicha yo'nalishga solib yuborish imkoniyatini berdi. Mamlakatimizda ijtimoiy fikrda hamda pedagogik tafakkurda ro'y bergan o'zgarishlar barcha fanlarning mazmun-mohiyatini o'zgartirdi, ularni o'qitish borasidagi yangicha yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirdi. Shuningdek, o'quv fanlarining tarbiyaviy imkoniyatlari kengaydi, bu borada o'qituvchi-murabbiylarimiz yosh avlodni milliy istiqlol g'oyalari asosida mustaqillik tafakkuriga ega iymon-e'tiqodli, haqiqiy vatanparvarlar qilib voyaga yetkazish dasturiga ega bo'ldilar.

Bugungi kunda xalqimiz, jumladan, ziyolilar, o'qituvchi-murabbiylarimizning ijtimoiy, pedagogik tafakkurida muayyan ijobiy o'zgarishlar ro'y bergan ekan, bu Davlatimiz rahbarining ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosati, ta'lim falsafasi rivojiga qo'shayotgan hissasi tufaylidir.

Prezidentimiz asarlari, yuksak aql zakovati, ta'lim-tarbiyaga oid falsafiy g'oyalari, siyosiy da'vatlari, dono rahbar sifatidagi fazilatlari, hamda mardlik va jasoratlari aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan yetuk, mustaqillik tafakkuriga ega barkamol avlodni shakllantirishning poydevoridir.

Istiqlolning dastlabki yillaridagi xavotirlar yo‘qoldi, qullik va mutelik kishanlari uloqtirib tashlandi. Xalqimiz tafakkuridagi eskicha qarashlar barham topdi, ularda ong, dunyoqarash, xarakter o‘zgardi, turmush yaxshilik tomon o‘zgarib bormoqda.

Ma’naviy poklanish va tiklanishning murakkab vazifalarini vazminlik bilan amalga oshirmoqdamiz.

«O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» g‘oyasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qildi. Davlatimiz rahbarining ilhombaxsh g‘oyalaridan, mardlik va jasoratidan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan, bunyodkorlik ishlaridan ilhomlangan xalqimiz har xil yovuz kuchlarga, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashda toblanib bormoqda.

Shahar va qishloqlarimizga ko‘rkam fayzu-salobat baxsh etib turgan, milliy va zamonaviy san‘atni o‘zida mujassam etgan muhtasham binolar, ta’lim-tarbiya maskanlari qad ko‘tarmoqda. Xalqimizning bir qo‘shig‘ida aytilganidek, ularning «Har g‘ishtida Yo‘lboshchining qo‘li bor».

Bugungi kunda Prezidentimizning asarlari, ulardagi teran g‘oyalar va ta’limni isloh qilish bo‘yicha O‘zbekistondagi tajribalar jahon hamjamiyati tomonidan har tomonlama o‘rganish obyektiga aylandi. Ularni taniqli davlat arboblari, siyosatchilar, faylasuflar, iqtisodchi olimlar, pedagoglar va oddiy fuqarolar katta qiziqish bilan o‘qib o‘rganmoqdalar va targ‘ib qilmoqdalar.

Muhtaram Islom Karimovning mustaqil davlatimiz ijodkori, buyuk rahbari sifatidagi serqirra faoliyati, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va falsafiy ta’limoti ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar uchun mavzu bo‘layotgani ijtimoiy hodisadir.

Prezidentimizning asarlari, ulardagi pedagogik g‘oyalari, qoidalar, milliy g‘oyaviy tarbiyani amalga oshirishda, barkamol avlodni shakllantirishda biz uchun muhim nazariy va amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularni o‘rganish, ulardagi g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirish uzluksiz ta’lim muassasalarining ustuvor vazifasidir.

Shuni e’tirof etish kerakki, mustaqillik yillarida olimlarimiz tomonidan Yurtboshimizning mustaqil davlatimiz ijodkori sifatidagi serqirra faoliyati, mamlakat va kishilar taqdirida tutgan o‘rni, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, falsafiy ta’limotini ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai-nazardan o‘rganishga oid bir necha asarlar yaratildi.



Ammo Yurtboshimizning ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari, u yaratgan yangi pedagogik tizimning mohiyati va ta'lim falsafasi rivojiga qo'shayotgan g'oyat ulkan hissasi haqida salmoqli tadqiqotlar yaratilmayapti.

Yosh avlodni muhtaram Prezidentimizning hayoti, serqirra faoliyati, yorqin shaxsi, yuksak aql-zakovati, dono rahbar sifatidagi fazilatlari, hamda mardlik va jasoratlari, asarlari namunasida tarbiyalash ta'lim muassasalarining hozirgi kundagi dolzarb vazifasidir.

Ayniqsa, uning asarlari, ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari bugungi kunda jahon andozalari talablariga javob beradigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashda, shu jumladan, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tafakkurni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur monografiya umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari, murabbiylariga, talabalarga, shuningdek, Yurtboshimiz asarlarini mustaqil o'qib o'rganuvchilarga bu sohada amaliy yordam beradi, degan umiddamiz.

---

---

# I BOB. TA'LIM-TARBIYANING FALSAFIY VA NAZARIY MASALALARI

## 1.1. Ta'lim falsafasi: tushuncha va mohiyat

Ijtimoiy falsafaning muhim yo'nalishlaridan biri – ta'limni falsafiy tushunish g'oyasidir.

Ta'lim falsafasi ta'limning mohiyati, qonuniyatlari, prinsiplari va muammolarini ochib beradigan falsafiy bilimlar, nazariy qoidalar yig'indisidir. Ayrim manbaalarda «ta'lim falsafasi» atamasi ta'limning falsafiy muammolarini tadqiq etuvchi bilim sohasini anglatadi, deb talqin etiladi.

Ta'lim falsafasining mohiyati – ta'limning inson kamoloti va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotidagi rolini falsafiy anglash, tushunish, uning rivojlanish qonuniyatlari, prinsiplari va ziddiyatlariga tahliliy yondashishdir. Uning eng muhim vazifalaridan biri shaxsda falsafiy dunyoqarashni shakllantirishdir.

Ta'lim falsafasi ta'lim-tarbiya masalalarini mantiq chig'irig'idan o'tkazib tahlil qilish, bu sohaga oid fikrlarga tanqidiy, ijodiy yondashish ko'nikmasini tarbiyalaydi.

Ta'lim ijtimoiy taraqqiyotning va tafakkur uchun kurashning muhim omiliga aylangan hozirgi sharoitda ta'lim falsafasi va metodologiyasining ahamiyati ham oshib bormoqda. Ta'limning taraqqiy etishi unga falsafiy jihatdan yonlashishni, ulardan mantiqiy xulosalar chiqarishni, buning uchun esa yuksak nazariy tafakkur, falsafiy dunyoqarashga ega bo'lishni talab etadi. Ta'limda doimo falsafiy, nazariy-ma'rifiy va umumiy metodologik xususiyatga ega bo'lgan muammolar yuzaga keladi. Uning yechimini topishda falsafiy tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida falsafiy tafakkur omiliga e'tibor kuchaymoqda. Ayniqsa, falsafaning ta'lim va tarbiya sohasidagi ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Falsafa fanlari doktori, akademik Said Shermuhammedov bu haqda bunday deb yozadilar: «Bilish, anglash, ta'lim va tarbiya insonning dunyoga bo'lgan ham nazariy, ham amaliy munosabatini



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/720> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/720> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/720>